

литературы. 2-е изд., переработанное и дополненное. – М.: «Р.Валент», 2006. –С. 508.

2. Семин Ю.Н. Учебные тезаурусы теоретической и прикладной механики: Учебное пособие. – Ижевск: Издательство ИжГТУ, 2001. –С. 76.

3. Вербицкий А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения: Материалы к четвертому заседанию методологического семинара 16 ноября 2004. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2004. –С. 84.

4. Валиев Т. Терминлар маъновий қўламининг қиёсий таҳлили. // УзМУ хабарлари. – Тошкент: 2016. №1/4.(10.00.00. №15)

5. Faxriddinova Q.B. The Role and Importance of an Integrated Bilingual Approach in Teaching English to Students //International Journal of Development and Public Policy. 2021. Т. 1. №. 5. – С. 286-288.

6. Худобина О.Ф. Педагогические условия преодоления психологических барьеров у студентов в процессе билингвального обучения в вузе. Дис. ...канд. пед. наук: 13.00.08. – Волгоград: 2007. –С. 242.

РЕЗЮМЕ

Мақолада мутахассислиги инглиз тили бўлмаган талабаларга инглиз тилини ўргатиш босқичларига эътибор берилган. Мақолада амал қилиш керак бўлган асосий тамойиллар: минимализм, мавзунинг мақсадга мувофиқлиги, контекстуаллик ва муаммолилик қайд этилган. Уларга ўқувчиларнинг эҳтиёжларига эътибор қаратиш тамойили ва фаоллик тамойилини қўшиш зарурати айтиб ўтилган.

РЕЗЮМЕ

Статья основана на этапах обучения английскому языку неанглоязычных студентов. Основные принципы, которых следует придерживаться в статье: минимализм, целесообразность темы, контекстуальность и проблематичность. Им было предложено добавить принцип ориентации на потребности учащихся и принцип активности.

SUMMARY

The article focuses on the stages of teaching English to non-English speaking students. The main principles to be followed in the article are minimalism, expediency of the topic, contextually and problematic. They were told to add the principle of focusing on the needs of students and the principle of activism.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA‘LIMI YO‘NALISHI O‘QITUVCHILARNI XALQ HUNARMANDCHILIGI A‘MALIY DARSIDA KA‘SBIY KOMPONENTLIGINI O‘RGATISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

K.A.Qutlimuradov – doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: zamonaviy ta‘lim va tarbiya, milliy ma‘naviyat, didaktik qarashlar, maqsad, fanlararo bog‘liqlik.

Ключевые слова: современное образование и воспитание, национальная духовность, дидактические взгляды, цель, междисциплинарная связь.

Key words: modern education and upbringing, national spirituality, didactic views, goal, interdisciplinary communication.

Insoniyat hayoti davomida ilm-hunar egallashi uchun yangiliklar yaratish, biror hunar egallab kelajakda o‘zi qiziqqan sohalarining yetuk mutaxassisi bo‘lishga intilar ekan, oilasi farzandlarimizning bolaligidan o‘z iqtidori, qiziqishlarini e‘tibor qaratgan holda, biron bir hunarning sir-asrorlarini o‘rganishlariga ko‘maklashish ahamiyatidir. Shu sababli hunar o‘rganish, o‘g‘il-qizlarimiz mehnatsevarlikni, sabr-bardoshlikni, qunt bilan ishlashdek ajoyib fazilatlarni o‘zlarida mujassam eta borishadi. Azaldan yurtimizda ilmu-hunar sohiblari ardoqlanib kelingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-son Farmoni sohani rivojlantirishda bo‘ljak texnologik ta‘lim yo‘nalishi o‘quvchilarga xalq hunarmandchiligi amaliy darslarda o‘rgatishning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda xalq hunarmandchiligining 160 dan ziyod turlari mavjud bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlaridan amaliyligi, qo‘l mehnati mahsulligi, mazmundorligi, ijodiyliigi, milliyliigi, mahalliy xom-ashyolarni topish va ta‘mirlashda qulayliigi, mehnatini uyg‘unlashtira olishliigi, asosiy hollarda murakkab qurilmalar, uskunalar, asboblari, stanoklar talab qilmasliigi, mashg‘ulotlarni tashkil etishning soddaligi bilan ajralib turadi. Natijada bu sohani yetarlicha o‘rgangan bo‘ljak texnologik ta‘lim yo‘nalishi o‘quvchilarga ma‘lum kasblarni egallaganliigi bilan alohida e‘tiborga molikdir. Shu o‘rinda umumiy tushunchalarni keltirib o‘tsak.

Milliy hunarmandchilik - moddiy madaniy meroslarimizning eng qadimiy muhim turlaridan hisoblanadi va tasviriy hamda amaliy san‘atning ko‘pdan ko‘p sohalarini bilan uyg‘unlashib ketadi. Ammo, tasviriy hamda amaliy san‘at, buyumlarga badiiy ishlov berish jarayonining, xalq hunarmandchiligining o‘ziga xosliigi, yo‘llari, xususiyatlari, o‘xshashliklarini va qolaversa, bir-biridan farqlarini ajratish mumindir.

Hunarmandchilik - milliy-an‘anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo‘l mehnatiga asoslangan sanoat turi: shunday

mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi. Yirik sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalarini keyin ham saqlangan. Rivojlanmagan mamlakatlarning xalq xo‘jaligida hozir ham muhim o‘rin egallaydi.

Bo‘ljak texnologik ta‘lim yo‘nalishi o‘qituvchilarga xalq hunarmandchiligini ozi ta‘lim olayotgan oliy ta‘limda, professional ta‘lim tizimi va umumtalim maktabda sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda yosh avlodlarga o‘rgatish asosiy muammo sifatida bo‘lib turibdi.

Ushbu yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda biz xalq hunarmandchiligiga oid bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatishda mavjud quyidagi muammolarni ko‘rstish mumkin:

- Bo‘ljak texnologik ta‘lim yo‘nalishi o‘qituvchilarida xalq hunarmandchiligiga oid ma‘lumotlar kamliigi;

-xalq hunarmandchiligi kasblari asosan ko‘p mehnatni talab qilishi;

-xalq hunarmandchiligi buyumlarini yasashda asosan qo‘l mehnati tashkil etishi;

-yoshlar xalq hunarmandchiligi kasblarida zamonaviy asbob va uskunalaridan foydalanmasliigi;

-yoshlarda milliy g‘urur hamda qadriyatlarining to‘laqonli ta‘lim jarayoniga tatbiq etilmaganliigi;

-xalq hunarmandchiligiga nisbatan o‘quvchilarning qiziqishi yo‘qligi;

-xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ma‘lumot beradigan metodik manbalarning yetishmasliigi;

-xalq hunarmandchiligiga oid mashg‘ulotlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning yetarlicha qo‘llanilmasliigi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib bo‘ljak texnologik ta‘lim yo‘nalishi o‘qituvchilarini xalq hunarmandchilik sirlarini o‘rgatishda ta‘limining innovatsion uslublaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun xalq hunarmandchiligi amaliy darslarini tashkil etishda yangi mazmunini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari, zamonaviy o‘quv uslubiy majmualar, o‘quv tarbiya jarayonining didaktik jihatlarini ta‘minlash va mazkur sohaga o‘qitishining ilmiy amaliy masalalarini

to'g'ri hal etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi.

Yuqoridagi xalq hunarmandchiligiga oid bilim va ko'nikmalarni o'rgatishda muammolarni quyidagicha bartaraf etish mumkin:

1. Bo'lajak texnologik ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarini, to'garak rahbarlari, psixologlar sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida xalqimizning boy tarixi, ota bobolarimiz, xususan, Qoraqalpoq xalq hunarmandchiligi bilan shug'ullanib hunar o'rganishga va hunarmandchilik bilan shug'ullanishga chorlovchi g'oyalarini o'rgatish va ularga tayanish;

2. Mahalla faollari hamda ota-onalar hamkorligida ko'proq yoshlarni mehnatsevarlik g'oyalari asosida mehnat faxriylari bilan davra suhbatlari, tadbirlar tashkil etish;

3. Iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni chuqurlashtirilgan ta'lim dasturlar bilan o'qitib, "Ustoz-shogird" tizimi asosida hunarmandchilikning tegishli sohasida yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislariga biriktirish;

4. Bo'lajak texnologik ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarini o'zlari yasagan xalq hunarmandchiligi buyumlarini turli ko'rgazmalar, festivallarda namoyish etish, tijoratlashtirish ishlarini bosqichma-bosqich takomillashtirib borish;

5. "Yosh hunarmand", "Eng mohir to'quvchi" kabi qator nominatsiyalar bo'yicha ko'rik tanlovlarini tashkil etish.

Hunarmandchilik qoraqalpoqlarning an'anaviy mashg'uloti bo'lib, qishloq xo'jaligi asbob-uskunalar, suv ko'taruvchi inshootlar (chig'ir), transport vositalari (arava, qayiq) yetkazib berish, aholini kiyim-kechak, uy anjomlari va boshqalar bilan ta'minlashda muhim o'rin tutgan. XIX - XX asr boshlarida hunarmand-qoraqalpoqlar asosan, Chimboy, Qo'ng'iro't, Xo'jayli shaharlarida yashagan. Masalan, Chimboyda temirchilar, yog'ochsozlar namozchilar, zargarlar, bo'yoqchilar, kulollar, to'quvchilar kabi qator kasb egalari ma'lum hududlarni egallagan. Biroq qishloqlarda – ovullarda hunarmandlar ko'p bo'lgan. O'tmishda hunarmandlarning dehqonchilik bilan aloqalarini uzmagani haqida tarixiy manbalarning dalillarini dala tadqiqotlari tasdiqladi. Qadimgi ma'lumotlarga qaraganda,

hunarmandlarga odatda, qilgan ishlari uchun natura - g'alla, chorva mollari yoki ishlab chiqarish uchun xom-ashyo sifatida haq to'langan; pul kamdan-kam hollarda, asosan, badavlat mijozlar yoki tashrif buyurgan savdogarlar tomonidan to'lanadi. Shu bilan birga, ba'zi qishloq joylarda hunarmandlar uchun ishlab chiqarilgan mahsulot soniga bog'liq bo'lmagan, yanada eskirgan ish haqi tizimi saqlanib qolgan: usta hisoblangan ovul jamoasi a'zosi va jamoa unga o'rim-yig'imdan keyin ovul aholisiga xizmat ko'rsatish uchun natura shaklida ma'lum ulush ajratgan. Shu bilan birga, uning mehnatiga haq to'lash miqdori (don miqdori va boshqalar) odatda ovul oqsoqoli tomonidan belgilanadi. Yuqoridagilarni xalq hunarmandchiligi amaliy darslarda va mashg'ulotlarida o'rganishimiz natijasida bo'lajak o'qituvchilarning qiziqishlarini sezilarli ravishda oshirib, xalq hunarmandchiligini o'rgatishni yuqori darajada yo'lga qo'yamiz.

Xulosa qilib aytish mumkinki, shular natijasida xalqimizning qadimiy tarixi va madaniy hayotini har tomonlama keng yoritish, nomoddiy madaniy merosimiz bo'lgan ko'p qirrali Qoraqalpoq milliy xalq hunarmandchiligini keng namoyish qilish, uning noyob namunalarini targ'ib etish, shuningdek, ushbu yo'nalishda o'zaro tajriba almashish orqali turli xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlash, madaniy-gumanitar aloqalarni xalqaro miqyosda kuchaytirish, avlodlar-avlodga o'tib kelayotgan kasbiy an'analar va hunarmandchilikni saqlash va qayta tiklashga erishishimiz mumkin. Ushbu maqola doirasi yoritilgan qoraqalpoq xalq hayoti va madaniyatining turli jihatlarini o'rganish, Shu bilan birga, zamonaviy etnik — madaniy jarayonlarning umumiy ilmiy nazariy muammolarini ishlab chiqish uchun ommaviy etnografik materiallarni to'plash, shu jumladan qoraqalpoq xalqining xalq an'alarini o'zgartirish va rivojlantirish jarayonini o'rganish va hayotining shakllanishi. Yuqorida aytilgan o'tganimizdek, qoraqalpoq xalqining zamonaviy turmush tarzini tadqiq etib kelgan; ushbu dolzarb yo'nalishdagi turli masalalarga bag'ishlangan dissertatsiyalar himoya qilingan. Xususan, qoraqalpoq xalq hunarmandchiligi oilasining zamonaviy turmush tarzini etnografik va etnosotsiologik o'rganish.

Adabiyotlar

1. Abdullaeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bulajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari. Dis. ...ped.fan.nom. -T.: 2006.
2. Grishina I.V. Professionalnaya kompetentnost direktora shkoli. Avtoref.: dis.... dokt.ped.nauk. – M.: 2004.
3. Slstenin V.A., Podumova L.S. Pedagogika: innovatsionnaya deyatel'nost. - M.: 1997.
4. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. -M.: «Znanie», 1996.
5. Nazarova B.A. Pedagogika kollejlari bulgusi oqituvchilarining kasbiy layoqatini tarbiyalash: Dis....ped.fan. nom. - T.: 2009.
6. Tugeshev R.X. K voprosu sistemnoy psixodiagnostiki psixologicheskoy kompetentnosti sub'ektov professionalnoy deyatel'nosti. /Tugeshev R.X. Rejim dostupa: [http://www.psycheya.ru/]
7. Esbergenov X., Atamuratov T. Qoraqalpoq turmush tarzida an'analar va ularning o'zgarishi. –Nukus: 1975.
8. Jdanko T.A., Kamolov S.K. Etnografi Karakalpakov. XX asr boshlari. (Materiallar va tadqiqotlar).

РЕЗЮМЕ

Moqalada o'qituvchilarni tayyorlashda ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagogik muammo ekanligi, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun pedagogik-psixologik shart sharoitlarni yaratish, kompetentlik yondashuv asosida modernizatsiyalash, kasbiy kompetentligini shakllantirishning xususiyatlari kabi masalalar so'z etiladi. Kasbiy tayyorgarlik darajasiga qoyiluvchi talablar nuqtayi nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to'plamini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyati so'z etiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается формирование профессиональной компетентности при подготовке учителей, создание педагогических условий для профессионального и личностного развития будущих, модернизация на основе компетентного подхода, особенности профессиональной компетентности. С точки зрения требования к уровню профессиональной подготовки, под компетенции понимается способность студентов использовать набор знаний, навыков и методов деятельности в конкретной ситуации.

SUMMARY

The article discusses the formation of professional competence in the training of teachers, the formation of professional competence, the creation of pedagogical and psychological conditions for the professional and personal development of future teachers, modernization on the basis of a competency approach, the features of professional competence. In terms of the requirements for the level of professional training, competence refers to the ability of students to use a set of knowledge, skills and methods of activity in a specific situation.